

ASAD DILMURODNING “PAHLAVON MAHMUD” ASARI TAHLILI

FarDU magistratura bo'limi adabiyotshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistri

Navro'za Raximova

Annotatsiya: Asad Dilmurodning ushbu romani tarixiy romanlar sirasiga kiradi. Asarda nafaqat polvonlikda, balki, adabiyotda ham o'z o'rniga ega bo'lgan tarixiy shaxs Pahlavon Mahmud haqida ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin. Uning zamonasining mashhur insonlari mutafakkir Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro bilan bo'lgan do'stliklari ham bayon qilingan. Romanda uning yoshligi, hayoti, ilk sevgisi, yaqinlaridan ko'rgan xiyonatlari va vafoti tafsilolarlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, sujet, konsentrik, assotsiativ, retrospektiv, xronikal, sevgi, muhabbat, Zulfizar.

Asad Dilmurodning "Pahlavon Muhammad" asari o'quvchiga tushunarli tilda yozilgan. Romanni o'qish davomida o'quvchida turli qiyinchiliklar, chalkashliklar bo'lmaydi. Roman bizga kuchda, nafaqat kuchda, balki, qalam tebratishda ham beqiyos bo'lgan Pahlavon Muhammad haqida hikoya qiladi. Asarni o'qir ekanmiz, Pahlavoni olam haqida bilmagan natsalarimiz ko'pligiga guvoh bo'lamiz. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslar bilan zamondoshgina bo'lib qolmay, ular bilan bir-biriga jondosh og'a-ini, Ustoz-shogird edi Pahlavon Muhammad. Romanda uning boshidan kechirganlari, qanday tarbiya topgani, otasi bilan bo'lgan sarguzashtlar, ilk sevgisini topgani va uning vasliga yetmasdan judo bo'lgani,

o'z farzandidek ko'rgan shogirdining xiyonati kabi voqealarning guvohi bo'lamiz. Romanda Pahlavon Muhammad haqida hech qayerda uchramagan voqealar mavjud, bundan tashqari biz bilgan, eshitgan voqealar kengaytirilgan holda berilgan,.

Roman sujetiga keladigan bo'lsak, asarda xronikal va konsentrik sujet qoriqshiq holda berilgan. Bundan tashqari romanda retrospektiv sujet unsurlarini ham uchratishimiz mumkin. Romanda voqealar sujeti Pahlavoni olamning dorul baqoga rixlat qilgani haqidagi sovuq xabar bilan boshlanadi. Bu xabardan biz bilgan so'z

mulkning sultoni Mir Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro shunday g'amga botadiki, o'quvchi beixtiyor Pahlavon kimligiga qiziqib qoladi va qanday qilib asarni o'qishga kirishganini bilmay qoladi. Pahlavon Mahmudning butun dunyoga dong'i ketgan polvon, qo'shtigir bo'lib yetishishida, bevosita, otasining xizmati katta bo'ladi. Otasi uni haqiqiy erkak qilib tarbiyalaydi, asarda keltirilishicha Pahlavon uch yoki to'rt yoshga to'lgach otasi uni onasidan ajratib toqqa olib chiqib ketadi. O'sha yerda uni chiniqtiradi, yo'lbars qonida kiyik go'shtini pishirib beradi. Xususan, Asad Dilmurodning romanida muallifning uslubiy izlanishlari ancha teranroqdir. Yozuvchi jahon romanlari tajribasini ijodiy o'zlashtirish bilan birga, ularni Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiyning "Lison ut-tayr", Rumiyning "Ichindagi ichindadur" asarlari bilan uyg'unlashtirishga, ifodalashda timsollardan foydalanishga, nutq so'zlashga harakat qilgan majoziy tilda. Darhaqiqat, muallif romanida inson ruhiyatining ikki dunyo o'rtasidagi kurashlarini, adashgan, aldangan, shaxsiga qaytishga uringan Saidbek Umarning iztiroblarini tasvirlab, xudbinlik, xiyonat, aybdorlik, qo'rqqulikni keskin qoralaydi. Asad Dilmurod iymon-e'tiqod butunligi, iroda mustahkamligi, tarixiy nasl-nasablar bilan bog'liqligi, qalb yo'liga sadoqat, bolalik musaffoligini asrab-avaylash, shuningdek, Yaratganni ma'naviy nigohlar orqali bilish mumkinligi haqidagi umuminsoniy g'oyani yuksak baholadi.

Romanda bitta katta sujet liniyasi bor. U ham bo'lsa Pahlavon Mahmudning ko'rgan-kechirganlari, boshidan o'tkazganlari. Bundan tashqari romanda kichik-kichik sujet liniyalari mavjud. Bunga misol qilib, Pahlavon ning yakka-yuz yolg'iz singlisi Gulsadafning o'g'li Darvesh Muhammadni keltirishimiz mumkin. Kun bo'yi madrasa ostonasida o'tiradigan, qo'lidan kitob tushmaydigan Darvesh Muhammad tog'asining tutingan o'g'li Ahmad Piriyl bilan jangga chiqishga oshiqadilar, bunga sabab tog'asi yemay-yedirgan, kiymay-kiydirgan o'g'li nobakorlik qilib Pahlavonni maydonga chorlaydi. Atrofdagi hamma polvon larni yiqqan Ahmad Piriyning ko'zi qonga to'lgan edi. Darvesh Muhammad tog'asining butun umr yiqqan obro'si yer bilan bitta bo'lishiga qarab turolmaydi. Uning maydonga chiqishiga boshida tog'asi rozi bo'lmaydi, keyin atrofdagilarning qistovi bilan qanday qilib flotiga berganini o'zi bilmay qoladi. " -

Xovliqish befoyda, Jiyan, - ikkilandi Pahlavon. Sharmanda bo'lishingden qo'rqaman. Muhammad Ali dek yonimda pishgan usta ahvolini ko'ring.

- Mulla, bilmaysizmi, buni maydon derlar, - nihoyat, Sodiq polvon suqildi oraga. Maydonda jiddu-jahd ko'rgazmak madrasada kayf surib saboq tinglamak emas. Mabodo mayib bo'lsangiz javobini beradigan kishi topilmasa.

Navro'za Hayotjonovna, [04.06.2025 12:17]

Holingizga maymunlar yig'lagay! Bu kabi kesatqlarga e'tibor bermay, Davesht.Muhammad so'zida qat'iy turadi, garchi maydonga tushgandan so'nggina qanday katta tavakkaliga qo'l urganini his qiladi. Lekin unda kech bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramay Uni Alloh yorlaqaydi va Ahmad Piri ustidan g'alaba qozonadi. Darvesht Muhammadda Pahlavonning xislatlaridan bor edi, misol uchun u o'zi pulga muhtoj bo'lsa-da, kurashda tutgan 15 lagan tillani uyi yonib ketgan qariyalarda tortiq qiladi. Sevgi bobida ham Davesht Muhammad og'asi his qilgan hislarni tuyadi, tom ma'noda Pahlavon Muhammad va Zulfizarning sevgisi Darvesht Muhammad va Mohida davom etadi.

Asar voqealari juda qizg'in ravishda davom etadi.Romanni o'qish davomida o'quvchi hech zerikish his qilmaydi,bir bo'limni o'qigandan so'ng beixtiyor keyingi bo'limga his-hayajon bilan o'tadi.Romanni o'qigan o'quvchi asar qahramonlatri bilan birgalikda harakatlanadi,asar ichida yashaydi,sevimli qahramoni kulsa kulib,yig'laganda iztirob chekadi.

Xulosa qilib aytganda,ushbu asar Asd Dilmurod ijodining eng yuqori darajalarini belgilab beradi.Asar tili sodda bo'lishi bilan birga,takrorlanmas tasviriy ifodalarga boy.Bu esa Asad Dilmurodning yozuvchilik mahorati qanchalik yuksak ekanini ko'rsatib beradi.